25	RSHTYOIM Samarqand filiali	
26	RSHTYOIM Qashqadaryo filiali	
27	RSHTYOIM Jizzax filiali	
28	Respublika ixtisoslashtirilgan kardiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi Qarshi filiali	
29	Respublika ixtisoslashtirilgan ona va bola salomatligi ilmiy-amaliy tibbiyot markazining Samarqand filiali	
30	Samarqand davlat tibbiyot universiteti ixtisoslashgan bolalar xirurgik klinikasi	
31	SDTU huzuridagi L.Isayev nomidagi Mikrobiologiya, virusologiya, yuqumli va parazitar kasalliklar ITI	
32	Samarqand viloyat bolalar ko'p tarmoqli tibbiyot markazi	
33	Qoraqalpog'iston tibbiyot instituti	Qoraqalpog'iston tibbiyot instituti
34	RSHTYOIMQoraqalpog'iston filiali	
35	RIOvaBSIATMning Qoraqalpog'iston Respublikasi hududiy filiali	
36	Qoraqalpog'iston ilmiy-amaliy tibbiyot akademiyasi	

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirining
BUYRUG'I
2026-yil 20-iyul
Toshkent shahri
232-son

2026/2027-O'QUV YILIDA KLINIK ORDINATURA (REZIDENTURAGA
QABULNI TASHKIL ETISH CHORA-TADBIRLARI TO'G'RISIDA

37	Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti	Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti
38	RSHTYOIM Farg'ona filiali	
39	Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi	Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi
40	Respublika ixtisoslashtirilgan ruhiy salomatlik ilmiy-amaliy tibbiyot markazi	
41	Respublika bolalar ortopediya markazi	
42	Respublika ixtisoslashtirilgan ona va bola salomatligi ilmiy-amaliy tibbiyot markazi	
43	Respublika ixtisoslashtirilgan dermatovenerologiya va kosmetologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi	
44	Respublika ixtisoslashtirilgan kardiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi	
45	Respublika ixtisoslashtirilgan ko'z mikroxirurgiyasi ilmiy-amaliy tibbiyot markazi	
46	Respublika ixtisoslashtirilgan neyroxirurgiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi	
47	Respublika ixtisoslashtirilgan onkologiya va radiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi	
48	Respublika ixtisoslashtirilgan terapiya va tibbiy reabilitatsiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi	
49	Respublika ixtisoslashtirilgan travmatologiya va ortopediya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi	
50	Respublika ixtisoslashtirilgan urologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi	
51	Akademik V.Vohidov nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan xirurgiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi	
52	Akademik Yo.To'raqulov nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan endokrinologiya IATM	
53	Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi	
54	Respublika ixtisoslashtirilgan allergologiya va klinik immunologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi	
55	Respublika ixtisoslashtirilgan gematologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi	
56	RIEMYUvaPKIATMning Virusologiya ilmiy-tadqiqot instituti	
57	Sanitariya, gigiyena va kasb kasalliklari ITI	
58	Respublika ixtisoslashtirilgan epidemiologiya, mikrobiologiya, yuqumli va parazitar kasalliklar IATM	
59	Respublika sud-tibbiy ekspertiza ilmiy-amaliy markazi	
60	Akademik Sh. Alimov nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan ftiziatriya va pulmonologiya IATM	
61	Bolalar milliy tibbiyot markazi	
62	Respublika xalq tabobati ilmiy-amaliy markazi	

←Давоми. Боши 1-27-бетларда

Давоми 29 - бетда→

KLINIK ORDINATURAДА ЎҚИШ НИМА БЕРАДИ? У НИМАГА КЕРАК?

Тиббиёт институтини битириш шифокор бўлиш йўлидаги муҳим қадам, аммо бу мустақил мутахассис сифатида ишлаш учун етарли эмас. Клиник ординатура ана шу билимларни чуқурлаштириш ва амалий маҳоратини мукаммаллаштириш босқичидир.

Клиник ординатура давомида ёш шифокор тажрибали устозлар раҳбарлигида беморларни қабул қилади, ташхис қўйиш, даволаш режасини тузиш, мураккаб клиник ҳолатларни таҳлил қилиш ва замонавий тиббий технологиялардан фойдаланишни ўрганади. Бу жараён назарий билимларни ҳақиқий клиник амалиёт билан уйғунлаштириш имконини беради.

Ординатуранинг яна бир муҳим жиҳати — мутахассисликни чуқур эгаллашдир. Кардиология, жаррохлик, неврология, акушерлик ва гинекология, анестезиология каби соҳалар-

да юқори малакали шифокор бўлиш учун айнан клиник ординатура талаб этилади.

Энг муҳими, клиник ординатура шифокорда мустақил қарор қабул қилиш, касбий масъулиятни ҳис этиш ва бемор хавфсизлигини таъминлаш қўникмасини шакллантиради. Шу боис бу босқич нафақат таълимнинг давоми, балки юқори малакали, рақобатбардош ва замонавий шифокорни тайёрлашнинг энг муҳим бўғини ҳисобланади.

Хулоса: Клиник ординатура – бу дипломдан кейинги оддий ўқиш эмас, балки шифокорнинг ҳақиқий касбий маҳорат мактабидир. Унда орттирилган билим ва тажриба келгусида минглаб беморлар саломатлигини сақлашга хизмат қилади.



O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirining
BUYRUG'I

2026-yil 20-iyul

Toshkent shahri

232-son

2026/2027-O'QUV YILIDA KLINIK ORDINATURA (REZIDENTURAGA) QABULNI TASHKIL ETISH CHORA-TADBIRLARI TO'G'RISIDA

Sog'liqni saqlash vazirining
2026-yil 20-iyuldagi 232-sonli buyrug'iga
5-ilova

2026/2027- o'quv yilida klinik ordinatura qabul yakunlari bo'yicha hisobot shakllari

2026/2027 -o'quv yilida Klinik ordinatura (rezidentura)ga kirish uchun tanlovda ishtirok etuvchi nomzodlar RO'YXATI

muassasa nomi

Sana

T/r	F.I.Sh	Tug'ilganyili, yashash manzili	Qachon va qaysi OTMni tamomlagan (ta'lim yo'nalishi, diplom №)	Klinik ordinatura (rezidentura) ga kirish uchun topshirgan mutaxassisligi
1.				
2.				
3.				

2026/2027 - o'quvyilida Klinikordi- natura (rezidentura)ga kirish uchun tanlovdano'tgannomzodlarning RO'YXATI

muassasanomi

Sana

T/r	F.I.Sh	Tug'ilgan yili, turar joyi (pasporti bo'yicha doimiy ro'yxatga olingan joyi viloyat va tuman alohida aniq yozilsin)	Qachon va qaysi OTMni tamomlagan (ta'lim yo'nalishi, diplom №)	Klinik ordinaturaga qabul qilingan mutaxassisligi	Grant yoki kontrakt asosidaqabul qilinganligi	Test sinovlarida to'plagan bali	Qabul qilingan o'rni shakli (maqsadli yoki erkin)
1.							
2.							
3.							

Sog'liqni saqlash vazirining
2026-yil 20-iyuldagi 232-sonli buyrug'iga
6-ilova

Klinik ordinatura (rezidentura)ga o'qishga qabul qilish uchun hujjat topshirish va tanlov o'tkazish TARTIBI

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur tartib O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan belgilanadigan mutaxassisliklar bo'yicha tayanch oliy tibbiy ma'lumotga ega bo'lgan shifokorlar, ilgari klinik ordinatura (rezidentura) yoki magistraturani tamomlagan hamda ixtisosidan tashqari ikkinchi mutaxassislikni olishni xohlagan tibbiyot kadrlari (keyingi o'rinlarda - talabgor)ning shifokorlik mutaxassisliklari bo'yicha klinik ordinatura (rezidentura)ga qabul qilish uchun hujjat topshirish va tanlov o'tkazishni belgilaydi.

2. Talabgorlarning tibbiyot muassasa (tashkilot)lariga klinik ordinatura (rezidentura) va internaturaga o'qishga qabul qilish uchun hujjat topshirishi va tanlov o'tkazilishi Tibbiyot va farmatsevtika xodimlarining malakasini baholash markazi (keyingi o'rinlarda - Markaz) tomonidan amalga oshiriladi.

2-bob. Talabgorlarni tibbiyot muassasa (tashkilot)lariga klinik ordinatura (rezidentura) va internaturaga o'qishga qabul qilish uchun hujjat topshirishi

3. Klinik ordinatura (rezidentura) va internaturaga o'qishga kirish uchun talabgorlar tomonidan topshiriladigan hujjatlar Markazning **medtoifa.ssv.uz** axborot tizimi orqali elektron shaklda qabul qilinadi.

4. So'rovnoma medtoifa.ssv.uz axborot tizimi orqali dam olish va bayram kunlaridan qat'i nazar, har kuni 24 soat davomida yuborilishi mumkin.

Bunda, so'rovnomalarni ish vaqtidan keyin yoki dam olish va bayram kunlari tushganda, navbatdagi ish kuni so'rovnomalarning qabul komissiyasiga tushgan va qabul komissiyasi tomonidan qabul qilingan kun hisoblanadi.

5. Talabgor klinik ordinatura (rezidentura) va internaturaga o'qishga kirish uchun tibbiyot muassasalarining qabul komissiyasiga Markazning **medtoifa.ssv.uz** axborot tizimi orqali mustaqil ravishda ushbu Tartibning 1-ilovasiga muvofiq **elektron shakldagi so'rovnomani** to'ldiradi.

So'rovnomaga quyidagi hujjatlar ilova qilinadi:

oliy ma'lumot to'g'risidagi hujjat (yoki diplomdan ko'chirma - O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalarini davlat granti bo'yicha o'qib tugatganlar uchun) hamda unga ilova;

O'zbekiston Respublikasining fuqarolari hisoblanadigan, boshqa davlatlarda tibbiyot oliy ta'lim muassasalarini tugatgan shifokorlar uchun oliy tibbiy ma'lumot to'g'risidagi hujjati belgilangan tartibda nostrifikatsiya qilinganligi (hukumatlar o'rtasidagi bitim bilan tan olingan davlatlar bundan mustasno) hujjati;

qonunchilik hujjatlariga muvofiq o'qishga kirishda imtiyoz beruvchi hujjat (olis va chekka hududlarda uzluksiz uch yil ishlaganligi to'g'risidagi hududiy sog'liqni saqlash boshqaruvi organi tomonidan tasdiqlangan ma'lumot).

Ko'rsatib o'tilgan hujjatlar mavjud bo'lganda qabul komissiyasi talabgorning hujjatlarini qabul qilishni rad etishga haqli emas.

Talabgorning klinik ordinatura (rezidentura) va internaturaga kirish uchun bir vaqtning o'zida bir nechta muassasada tanlovda qatnashishi taqiqlanadi.

Taqdim etilgan hujjatlardagi ma'lumotlarning haqqoniyligiga talabgor mas'ul hisoblanadi.

6. Har bir muassasa (tashkilot)ning klinik ordinatura (rezidentura) va internatura bo'yicha qabul komissiyasi mas'ul kotiblari medtoifa.ssv.uz axborot tizimi orqali talabgorlarning bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga muvofiq keluvchi klinik ordinatura (rezidentura) va internaturamutaxassisliklari bo'yicha hujjatlarini qabul qilishga mas'uldir.

7. Talabgorning hujjatlari qabul komissiyasi tomonidan o'rganib chiqiladi va talabgorni tanlovga qo'yish yoki qo'ymaslik to'g'risida qaror qabul qiladi.

Bunda, qabul komissiyasi mas'ul kotiblari tomonidan **bir ish kuni** davomida medtoifa.ssv.uz axborot tizimi orqali talabgorga asoslantirilgan xabarnoma yuboriladi.

Talabgor hujjatlari rad etilgan taqdirda, qabul komissiyasi tomonidan ushbu tartibga muvofiq rad etish to'g'risidagi xabarnoma rad etish sabablari va talabgor ushbu sabablarni bartaraf etib, mazkur o'quv yili uchun hujjat qabul qilishning belgilangan oxirgi kuniga qadar takroran ko'rib chiqish uchun hujjatlarni taqdim etishi mumkinligi ko'rsatilgan holda, medtoifa.ssv.uz axborot tizimi orqali uning shaxsiy kabinetiga elektron shaklda yuboriladi.

Talabgorga rad etish sabablari bartaraf etilishi uchun taqdim etilgan muddat davomida qayta taqdim etilgan hujjatlar ko'rib chiqiladi.

Rad etish to'g'risidagi xabarnomada ko'rsatilgan muddat tugagandan so'ng berilgan ariza ko'rib chiqilmaydi.

8. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi klinik ordinaturaga qabulni o'tkazish uchun respublika ommaviy axborot vositalarida tanlov e'lon qiladi, arizalar berish muddati e'lon chop etilgan kundan boshlab kamida 30 kundan iborat qilib belgilanadi.

Ariza berish muddati talabgorga rad etish sabablari bartaraf etilishi uchun taqdim etilgan muddat davomida qayta taqdim etilgan arizalar uchun tatbiq etilmaydi.

3-bob. Tanlov jarayonlarini o'tkazish tartibi

2026/2027-O'QUV YILIDA KLINIK ORDINATURA (REZIDENTURAGA QABULNI TASHKIL ETISH CHORA-TADBIRLARI TO'G'RISIDA

9. Talabgorlarni tibbiyot muassasa (tashkilot)lariga klinik ordinatura (rezidentura) va internaturaga o'qishga qabul qilish tanlov jarayonlari bir bosqichli **kompyuter-test sinovlari shaklida** Markaz va uning hududiy bo'limlari tomonidan amalga oshiriladi.

10. Test sinovini topshirishda talabgor testga kirish ruxsatnomasi, shaxsini tasdiqlovchi hujjatning asl yoki elektron nusxasi (fuqarolik pasporti, identifikatsiya ID-kartasi, fuqaroning xorijga chiqish biometrik pasporti yoki haydovchilik guvohnomasi kabilar) ni taqdim etadi.

Shaxsni tasdiqlovchi hujjatga ega bo'lmagan yoki test sinoviga kechikkan talabgorlar test sinovi jarayonlariga qo'yilmaydi.

11. Test sinovining ochiq va oshkora o'tkazilishini ta'minlash uchun test-sinovi jarayoni Markazning rasmiy veb-saytida onlayn translyatsiya qilinadi hamda audio va videoyozuvlarda qayd etib boriladi va videotasvir Markazda kamida biryil saqlanadi.

12. Test sinovi uchun 50 daqiqa vaqt ajratiladi. Test sinovi davrida har bir testdan o'tuvchiga 50 ta savol beriladi. Har bir savol 1,1 balli tizimda baholanadi. Maksimal ball 55 ball (100 foiz)ni tashkil etadi.

klinik ordinatura (rezidentura) va mutaxassisligiga mos ravishda tegishli bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bo'yicha test sinovi topshiriladigan fanlar majmuasi va baholash mezonlari mazkur Tartibga 2-ilovaga muvofiq amalga oshiriladi.

Test variantlari tafsilotlari va foydalanish uchun tavsiya etilgan adabiyotlar ro'yxati test sinovi o'tkazilishidan kamida 10 kun oldin Markazning rasmiy saytida e'lon qilinadi.

13. Test sinovlari yakunida medtoifa.ssv.uz axborot tizimidan avtomatik ravishda olinadigan ma'lumotlar asosida test sinovi qaydnomasi shakllantiriladi.

Test sinovi qaydnomasida quyidagi ma'lumotlar ko'rsatiladi:
test sinovi o'tkazilgan joy va sana;
test sinovida hozir bo'lgan va kelmagan talabgorlar ro'yxati;
har bir talabgorning familiyasi, ismi va otasining ismi, mutaxassisligi va boshqa ma'lumotlar, shuningdek, test sinovi natijasida olingan ballar ko'rsatiladi.

Test sinovi qaydnomasi tanlov yakunlangandan so'ng uch kun ichida belgilangan tartibda Sog'liqni saqlash vazirligiga taqdim etiladi va Markazning rasmiy veb saytida e'lon qilinadi.

14. Test sinovidan o'ta olmagan talabgor test sinovi o'tkazilgan kundan boshlab o'ttiz ish kuni ichida Markazga apellyatsiya berish huquqiga ega. Apellyatsiya yozma ravishda taqdim etiladi.

Apellyatsiya komissiyasi apellyatsiya shikoyatini ko'rib chiqishda zarur hollarda, talabgor yoki betaraf mutaxassislarni taklif qilishi mumkin.

Apellyatsiya komissiyasi tarkibi Markaz tomonidan kamida besh nafar a'zodan, shu jumladan, komissiya raisi, rais o'rinbosari va kotibidan iborat tarkibda tasdiqlanadi.

Apellyatsiya komissiyasi o'n ish kuni ichida kiritilgan apellyatsiyani ko'rib chiqadi va talabgorga qabul qilingan qaror haqida yozma ravishda xabar beradi.

15. Apellyatsiyani ko'rib chiqish natijalari yuzasidan apellyatsiya komissiyasi tomonidan quyidagi qarorlardan biri qabul qilinadi:

test sinovi natijalarini (yozma ravishda asoslangan xat asosida) o'zgarishsiz qoldirish va apellyatsiyani qanoatlantirishni rad etish to'g'risida;

apellyatsiyani qanoatlantirish va talabgor test sinovini topshirgan deb hisoblash to'g'risida;

talabgorni takroran test sinoviga qo'yish to'g'risida.

16. Test sinovi natijalarini o'zgarishsiz qoldirish va apellyatsiyani qanoatlantirishni rad etish to'g'risidagi qaror quyidagi hollarda qabul qilinadi:

apellyatsiya mazkur tartib talablarini buzgan holda taqdim etilgan bo'lsa;

apellyatsiyada ko'rsatilgan vajlar o'z tasdig'ini topmasa.

17. Test sinovini takroran o'tkazish to'g'risidagi qaror apellyatsiya bergan talabgorning test sinovi mazkur tartib talablariga zid ravishda o'tkazilganligi holatlari aniqlangan taqdirda qabul qilinadi.

18. Markaz tomonidan apellyatsiya bergan talabgor uchun test sinovini takroran o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilingan taqdirda, takroriy test sinovi mazkur tartibda belgilangan tartibda o'tkaziladi.

Bunda test sinovi tartib talablariga zid ravishda o'tkazilganligi holatlari aniqlangan taqdirda, apellyatsiya bergan talabgor uchun test sinovi takroran o'tkazilishini inobatga olgan holda, test sinovi takroran bepul o'tkaziladi.

19. O'tkazilgan bitta test sinovi yuzasidan takroran apellyatsiya berilmaydi.

20. Markazning qarori ustidan qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda sudga shikoyat qilinishi mumkin.

4-bob. Yakuniy qoidalar

21. Tibbiyot va farmatsevtika xodimlariga Klinik ordinatura (rezidentura) va mutaxassisliklari bo'yicha o'qishga qabul qilish uchun bir bosqichli kompyuter-test sinovlarini o'tkazish jarayonida barcha texnik va dasturiy vositalarning uzluksiz ishlashi ta'minlanishi uchun test sinovi o'tkazilayotgan tashkilot rahbari mas'ul etib belgilanadi.

22. Markaz o'z faoliyatini amalga oshirishi natijasida olingan ma'lumotlarning sir saqlanishini ta'minlaydi.

23. Talabgor davlat organlari va boshqa tashkilotlar xodimlarining xatti-harakatlari (harakatsizligi) yuzasidan qonunchilikda belgilangan tartibda shikoyat qilishlari mumkin.

24. Mazkur tartib talablarining buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.

Tibbiyot kadrlarini shifokorlik mutaxassisliklari bo'yicha klinik ordinatura (rezidentura) va internaturaga o'qishga qabul qilish uchun hujjat topshirishva tanlov o'tkazish tartibiga

1-ilova

KLINIKORDINATURA (REZIDENTURA) VABO'YICHAHUJJATTOPSHIRISHUCHUN SO'ROVNOMA

I. Talabgor to'g'risida ma'lumot		
1.	Ta'lim olgan tibbiyot yoki ta'lim tashkiloti nomi:	talabgor tomonidan to'ldiriladi
2.	Bakalavriat ta'lim yo'nalishi nomi	talabgor tomonidan tanlanadi
3.	Ilgari tamomlagan klinik ordinatura (rezidentura) yoki mutaxassisligi nomi (mavjud bo'lganda) ikkinchi mutaxassislikka topshirayotgan talabgorlar uchun	talabgor tomonidan to'ldiriladi
4.	Hujjat topshirayotgan muassasa nomi	talabgor tomonidan tanlanadi
5.	Talabgorlik qilayotgan klinik ordinatura (rezidentura) yoki mutaxassisligi nomi	talabgor tomonidan tanlanadi
6.	Test sinovi topshiradigan hudud nomi	talabgor tomonidan tanlanadi
II.Qabul rejasi bo'yicha:		
7.	Maqsadli o'ringa (hudud nomi ko'rsatilishi lozim)	talabgor tomonidan tanlanadi
8.	Erkin o'ringa	talabgor tomonidan tanlanadi
9.	Imtiyozni (agar bo'lsa) tasdiqlovchi hujjat	talabgor tomonidan ma'lumot yuklanadi

Tibbiyot kadrlarini Shifokorlik mutaxassisliklari bo'yicha klinik ordinatura (rezidentura) va internaturaga o'qishga qabul qilish uchun hujjat topshirish va tanlov o'tkazish tartibiga

2-ilova

“Davolash ishi”, “Professional ta'lim (Davolashishi)”, “Tibbiy profilaktika ishi”, “Tibbiy biologiya ishi” va “Xalq tabobati” ta'lim yo'nalishlariga klinik ordinatura mutaxassisliklariga mos uchta fan bo'yicha test sinovi topshiriladigan fanlar majmuasi

Fanlar nomi	Test topshiriqlari soni	Baholash mezonlari	Maksimal ball
“Davolash ishi”, “Professional ta'lim (Davolashishi)” ta'lim yo'nalishlariga klinik ordinatura mutaxassisliklariga mos uchta fanbo'yicha			
Terapiya	17	1.1 ball	18,7 ball
Xirurgiya	17	1.1 ball	18,7 ball
Akusherlik va ginekologiya	16	1.1 ball	17,6 ball
Jami:	50		55,0 (100 foiz)
“Tibbiy profilaktika ishi” ta'lim yo'nalishiga klinik ordinatura mutaxassisliklariga mos uchta fan bo'yicha			
Epidemiologiya	17	1.1 ball	18,7 ball
Mehnat gigiyenasi	17	1.1 ball	18,7 ball
Bolalar va o'smirlar gigiyenasi	16	1.1 ball	17,6 ball
Jami:	50		55,0 (100 foiz)
“Tibbiy biologiya ishi” ta'lim yo'nalishiga klinik ordinatura mutaxassisliklariga mos uchta fan bo'yicha			
Laboratoriya ishi	17	1.1 ball	18,7 ball
Mikrobiologiya	17	1.1 ball	18,7 ball
Tibbiy va biologik kimyo	16	1.1 ball	17,6 ball
Jami:	50		55,0 (100 foiz)

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirining
BUYRUG'I

2026-yil 20-iyul

Toshkent shahri

232-son

2026/2027-O'QUV YILIDA KLINIK ORDINATURA (REZIDENTURAGA
QABULNI TASHKIL ETISH CHORA-TADBIRLARI TO'G'RISIDA

“Xalq tabobati” ta’lim yo‘nalishiga klinik ordinatura mutaxassisliklariga mos uchta fan bo‘yicha			
Reabilitologiya	17	1.1 ball	18,7 ball
Fizioterapiya	17	1.1 ball	18,7 ball
Xalq tabobati falsafasi	16	1.1 ball	17,6 ball
Jami:	50		55,0 (100 foiz)

“Pediatriya ishi” ta’lim yo‘nalishiga klinik ordinatura mutaxassisliklariga mos uchta fan bo‘yicha test sinovi topshiriladigan fanlar majmuasi

Fanlar nomi	Test topshiriqlari soni	Baholash mezonlari	Maksimal ball
“Pediatriyaishi” ta’lim yo‘nalishiga klinik ordinatura mutaxassisliklariga mos uchta fan bo‘yicha			
Pediatriya	17	1.1 ball	18,7 ball
Bolalar xirurgiyasi	17	1.1 ball	18,7 ball
Terapiya	16	1.1 ball	17,6 ball
Jami:	50		55,0 (100 foiz)

“Stomatologiya” va “Bolalar stomatologiyasi” ta’lim yo‘nalishlariga Klinik ordinatura mutaxassisliklariga mos uchta fan bo‘yicha test sinovi topshiriladigan fanlar majmuasi

Fanlar nomi	Test topshiriqlari soni	Baholash mezonlari	Maksimal ball
“Stomatologiya” ta’lim yo‘nalishiga klinik ordinatura mutaxassisliklariga mos uchta fan bo‘yicha			
Terapevtik stomatologiya	17	1.1 ball	18,7 ball
Ortopedik stomatologiya	17	1.1 ball	18,7 ball
Jarrohlik stomatologiya	16	1.1 ball	17,6 ball
Jami:	50		55,0 (100 foiz)
“Bolalar stomatologiyasi” ta’lim yo‘nalishiga klinik ordinatura mutaxassisliklariga mos uchta fan bo‘yicha			
Bolalar terapevtik stomatologiyasi	17	1.1 ball	18,7 ball
Bolalar xirurgik stomatologiyasi	17	1.1 ball	18,7 ball
Ortodontiya	16	1.1 ball	17,6 ball
Jami:	50		55,0 (100 foiz)

Sog'liqni saqlash vazirining
2026-yil 20-iyuldagi 232-sonli buyrug'iga
7-ilova

2026/2027-o'quv yilida N.I.Pirogov nomidagi Rossiya milliy tad-
qiqot tibbiyot universitetida O'zbekiston Respublikasi fuqarolari ta'lim
oladigan ordinatura yo'nalishlari ro'yxati va qabul parametrlari
RO'YXATI

T/r	Mutaxassislik nomi	O'qish davomiyligi	Sog'liqni saqlash vazirligitomonidan qonunchilikda belgilangan tartibda moliyalashtiriladigan o'rinlar soni
1	Anesteziologiya va reanimatologiya	2 yil	2
2	Akusherlik va ginekologiya	2 yil	2
3	Pediatriya	2 yil	2
4	Neonatologiya	2 yil	2
5	Kardiologiya	2 yil	2
6	Nevrologiya	2 yil	2
7	Endokrinologiya	2 yil	2
8	Umumiy onkologiya	2 yil	2
9	Travmatologiya va ortopediya	2 yil	1
10	Umumiy xirurgiya	2 yil	1
11	Shoshilinch tibbiy yordam	2 yil	1
12	Yuqumli kasalliklar	2 yil	1
Jami			20

Для информации

ПРИЕМ В ОРДИНАТУРУ
В ФГАОУ ВО РНИМУ ИМ. Н.И. ПИРОГОВА МИНЗДРАВА
РОССИИ (ПИРОГОВСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ)
Сроки проведения приема в 2026 году:

Этапы приема	Места по договорам об оказании платных образовательных услуг для иностранных граждан
Начало приема документов	1 июля 2026 года
Завершение приема документов	25 июля 2026 года (до 18:00 по МСК) В случае успешной подачи документов, абитуриенту будет назначена дата проведения вступительного испытания.
Сроки проведения вступительных испытаний	с 29.07.2026г. по 30.07.2026г. (31.07.2026резервный день) Абитуриент обязан представить заверенный перевод диплома об образовании при прохождении вступительных испытаний.
Публикация ранжированных конкурсных списков	04 августа 2026 года
Завершение представления оригиналов документов установленного образца	11 августа 2026 года (или копия документа установленного образца и согласие на зачисление)
Зачисление (издание приказов)	12 августа 2026 года
Основание для зачисления	Оригинал документа об образовании установленного образца или заявление о согласии на зачисление с приложением заверенной копии указанного документа или копии указанного документа с предъявлением его оригинала для заверения копии приемной комиссией; Заключенный договор об оказании платных образовательных услуг; Подтверждение оплаты обучения.

Перечень документов:
ВАЖНО!!! Переводы документов должны иметь одинаковые данные. Пример – ФИО в переводе диплома, должны соответствовать ФИО в переводе удостоверения личности и т.д.
Биометрический паспортгражданина Республики Узбекистан для выезда за границу (загранпаспорт);
перевод загранпаспорта;
документ об образовании – диплом с приложением (транскриптом).
перевод документа об образовании – диплома с приложением (транскриптом).
свидетельство о признании иностранного образования на территории Российской Федерации, в случае, если онополучено в период до 31 мая 2019 года в Республике Узбекистан. Для проведения процедуры признания документы должны быть поданы в уполномо-
ченные организации – <https://rsmu.ru/academics/international-students/iok>(сделать это необходимо заранее, так как процедура может длиться до 30 дней и абитуриент рискует не успеть подать пакет документов для поступления).
Документы, необходимые для поступления, направляются в Университет одним из следующих способов:
в электронной форме посредством электронной информационной системы Универ-
ситета <https://lk.rsmu.ru/> (размер загружаемых файлов ограничен);
представляются в Университет лично поступающим (доверенным лицом);
направляются в Университет через операторов почтовой связи общего пользования по адресу: 117513, г. Москва, улица Островитянова, дом 1, стр. 6.
Консультации по вопросам поступления – admission@rsmu.ru
Подготовка к поступлению:
Пройти репетиционное тестирование можно на сайте Методического центра аккре-
дитации – <https://reh2-test.mededtech.ru/login?redirect=/attempt-grid>. Количество попы-
ток не ограничено.
Вступительные испытания проводятся в рамках процедуры первичной аккредитации
специалиста, без прохождения последующих этапов указанной аккредитации. Тестиро-
вание проводится с использованием тестовых заданий, комплектуемых автоматически
путем случайной выборки 80 тестовых заданий из Единой базы оценочных средств,
формируемой Министерством здравоохранения Российской Федерации.
Минимальное количество баллов, подтверждающее успешное прохождение вступи-
тельного испытания: 70% верных ответов.
Тестирование проводится на русском языке. Университет не предоставляет возмож-
ности проведения вступительных испытаний на иностранном языке.
Набор вопросов вступительного испытания зависит от специальности, на основании
которой абитуриент поступает в ординатуру (на основании предыдущего образования).
Пример: у абитуриента имеется диплом об окончании программы специалитета по
специальности «Лечебное дело», соответственно набор вопросов вступительного испы-
тания будет соответствовать специальности «Лечебное дело».

Важно! Расходы на обучение (по договору) и выплату стипендий кандидатам (только
гражданам Республики Узбекистан) зачисленным в ординатуру Российского национального
исследовательского медицинского университета имени Н.И. Пирогова на основе государ-
ственного гранта, покрываются за счет средств Министерства здравоохранения Респу-
блики Узбекистан.

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirining
BUYRUG'I

2026-yil 20-iyul

Toshkent shahri

232-son

2026/2027-O'QUV YILIDA KLINIK ORDINATURA (REZIDENTURAGA) QABULNI TASHKIL ETISH CHORA-TADBIRLARI TO'G'RISIDA

Sog'liqni saqlash vazirining
2026-yil 20-iyuldagi 232-sonli buyrug'iga
8-ilova

Sog'liqni saqlash vazirining
2026-yil 20-iyuldagi 232-sonli buyrug'iga
9-ilova

Yetakchi xususiy klinikalarni baholash bo'yicha
Sog'liqni saqlash vazirligi komissiyasi
TARKIBI

Yetakchi xususiy klinikalarni tibbiyot oliy ta'lim
tashkilotlariga hududlar kesimida birlashtirish taqsimoti

T/r	F.I.Sh.	Ish joyi va lavozimi
1.	Adilov Eldor Erkinovich	Sog'liqni saqlash vaziri, Komissiya raisi
2.	Xudaykulov Adham Yusupovich	Sog'liqni saqlash vaziri o'rinbosari, Komissiya raisi o'rinbosari
Komissiya a'zolari:		
3.	Fayziyeva Nozima Avazbek qizi	Tibbiyot ta'limi va ilm-fan departamenti boshlig'i
4.	Boymuradov Shuhrat Abduljalilovich	Toshkent davlat tibbiyot universiteti rektori
5.	SharipovSanjarSalomovich	Tibbiyot va farmatsevtika xodimlarining malakasini baholash markazi direktori
6.	Lavozim bo'yicha	Tibbiyot va farmatsevtika sohasida litsenziyalash va ruxsat berish faoliyatini muvofiqlashtirish bo'limiboshlig'i
7.	Qoraqalpog'iston Respublikasi Sog'liqni saqlash vaziri, viloyatlar va Toshkent shahar sog'liqni saqlash boshqarmalari boshliqlari	Xususiy klinika joylashgan hududiga muvofiq
8.	Hududiy OTM rektori	Xususiy klinika joylashgan hududiga muvofiq (9-ilova)
9.	Xaitov Qaxramon Najmitdinovich	Toshkent davlat tibbiyot universitetining o'quv ishlari bo'yicha prorektori, Komissiya kotibi

T/r	Tibbiyot oliy ta'lim muassasasi	Tibbiyot oliy ta'lim muassasasi rektori	Xususiy klinika faoliyat olib borayotgan hudud
1.	Toshkent davlat tibbiyot universiteti	Boymurodov Shuxrat Abdurasulovich	Jizzax viloyati, Sirdaryo viloyati, Toshkent viloyati, Toshkent shahar
2.	Samarqand davlat tibbiyot universiteti	Rizayev Jasur Alimdjanovich	Samarqand viloyati, Qashqadaryo viloyati
3.	Qoraqalpog'iston tibbiyot instituti	Xalimov Olimboy Ashirbaevich	Qoraqalpog'iston Respublikasi
4.	Andijon davlat tibbiyot instituti	Madazimov Madamin Mo'minovich	Andijon viloyati, Namangan viloyati
5.	Buxoro davlat tibbiyot instituti	Teshayev Shuxrat Jumayevich	Buxoro viloyati, Navoiy viloyati
6.	Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti	Sidikov Akmal Abdukaxorovich	Farg'ona viloyati
7.	Urganch davlat tibbiyot instituti	Ruzibayev Rashid Yusupovich	Xorazm viloyati
8.	Toshkent davlat tibbiyot universitetining Termiz filiali	Otamurodov Furqat Abukarimovich	Surxondaryo viloyati

БИРИНЧИ КЛИНИК ОРДИНАТУРА ҚАЧОН БОШЛАНГАН?

XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib, tibbiyot jadal tarakkiy etaboshladi. Ilmий лабораториялар, анестезия, антисептика va бактериология sohasidagi kashfiyotlar shifokorlardan nafoakat nazariy bilim, balki katta amaliy tajriba ham talab qila boshladi. Shu ehtiёj klinik ordinatura tizimining yuzaga kelişigiga sabab buldi.

Tarixchilarning aksariyati birinchi zamonaviy klinik ordinatura dasturi 1889 yilda AQShda Jons Hoppkins gosпиталида йўлга қўйилганини taъkidlaydi. Mashhur jarroх Uilyam Stюart Халстед yangi битирган шифокорларни беморлар билан доимий ишлашга жалб килди. Улар касалхонада яшар, устоз шифокорлар назорати остида беморларни кузатар, ташхис қўяр, операцияларда иштирок этар va куну тун навбатчилик қилар эдилар. Ана шу сабабли бу тизим инглиз тилида "residency" — яъни "касалхонада яшаш" деб ном олган.

Халстед томонидан жорий этилган ушбу таълим модели киска вақт ичида ўз самарасини кўрсатди. Назарий bilim va амалий кўникмаларнинг уйғунлиги юкори малакали мутахассисларни тайёрлаш имконини берди. Кейинчалик бу тажриба AQShning бошқа тиббиёт марказларига, сўнг Европа давлатла-

рига va дунёнинг кўплаб мамлакатларига тарқалди. Қизиқ томони шундаки, клиник ordinatura гоёсининг илдиэлари бундан ҳам олдинроқ Европа университетларида шакланган эди. XVIII–XIX asrlarda Франция va Германиянинг йирик университет клиникаларида талабалар профессорлар билан биргаликда беморларни кузатишар va даволаш жараёнида иштирок этишарди. Бироқ бу тизим хали расмий va босқичма-босқич ташкил этилмаган эди. Замонавий маънодаги тизимли ordinatura айнан Jons Hoppkins gosпиталида шакланди.

Бугунги кунда клиник ordinatura деярли барча мамлакатларда шифокор тайёрлашнинг ажралмас қисми ҳисобланади. У мутахассисга мустақил клиник қарор қабул қилиш, зamonaviy ташхис va даволаш усулларини пухта ўзлаштириш ҳамда юкори малакага эга бўлиш имконини беради.

Қизикарли факт: "Ординатура" атамаси латинча ordinare — "тартибга солиш", "тизимлаштириш" маъносини англатувчи сўз билан боғлиқ деб қаралади. Илк ординаторлар касалхона худудида доимий яшаганлари учун уларнинг тайёргарлиги бошқа шифокорларга нисбатан анча интенсив бўлган. Уильям Халстед жорий этган таълим модели бугунги кунгача дунё тиббиётида қўлланиладиган резидентура тизимининг асосини ташкил этади.



Замонавий клиник ординатуранинг асосий тамойили — "бемор ёнида ўқитиш" (bedside teaching) ҳисобланади.

Клиник ordinatura тарихи шуни кўрсатадики, ҳақиқий шифокор фақат аудиторияда эмас, balki бемор ёнида, устозлар раҳбарлигида шаклланади. Шунинг учун ҳам XIX asr охирида пайдо бўлган ушбу таълим модели бугун ҳам ўз аҳамиятини йўқотмаган va жаҳон тиббиётининг энг муваффақиятли таълим тизимларидан бири сифатида эътироф этилади.



Газета муассиси:
Ўзбекистон Республикаси
Соғлиқни сақлаш вазирлиги

ISSN 2010-6149.
Электрон манзилими: www.uzssgz.uz

Бош муҳаррир
ИБОДАТ СОАТОВА

Газета ўзбек va рус тилларида чоп этилади. Ҳафтанинг пайшанба кунлари чиқади. Мақолалар кўчириб босилганда "O'zbekistonda sog'liqni saqlash – Zdravooxranenie Uzbekistana" газетасидан олинди деб кўрсатилиши шарт. Тахририятга келган кўлёмалар тақриз қилинмайди va муаллифга қайтарилмайди.

Газета 2009 йил 11 мартда Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси ҳузуридаги Ахборот va оммавий коммуникациялар агентлигида 0015–рақами билан рўйхатга олинган.

Газета тахририят компьютер марказида терилди va саҳифаланди. Саҳифаловчи: Нарзулла Ҳамроев
Тахририят манзили: 100060, Тошкент шаҳри, Истикбол кўчаси, 30 уй, 2–қават. Тел/факс: (71)233–13–22, тел.: (71)233–57–73.
Газета "Шарқ" нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси босмахонасида чоп этилди.
Корхона манзили: Тошкент шаҳри, Буюк Турон кўчаси, 41 уй/Тел/факс: (71)233–11–07.

Газета ҳажми
8 босма табоқ.
Формати А3. Офсет
усулида чоп этилган.

Адади - 557 дона.
Буюртма рақами Г-738.

Босмахонага
топирилиш вақти:
21-00. 3 4 5 6 7
Топирилди 23-00.